

XORAZM VILOYATIDAGI ICHAN-QAL'A: TARIX, MEROS VA TURIZM → YUNESKO RO'YXATIDAGI SHAHAR MODELI

Ibragimova Durdona

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 4 bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Ichan-Qal'a tarixiy majmuasining shakllanishi, uning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o'rni hamda UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, hududning "muzey-shahar" sifatidagi xususiyatlari va turizm rivojidagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar. Ichan-Qal'a, Xiva, UNESCO, madaniy meros, turizm, tarixiy shahar, muzey-shahar.

Xiva shahrining ichki qismi hisoblangan Ichan-Qal'a Markaziy Osiyodagi eng yaxshi saqlangan tarixiy shahar ansambllaridan biri bo'lib, u o'zining boy tarixi, noyob me'morchiligi va turizm salohiyati bilan ajralib turadi. Mazkur hudud qadimgi Xorazm sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Xiva shahri esa XVI asrdan boshlab Xiva xonligi poytaxtiga aylanishi natijasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida yanada rivojlangan.

Ichan-Qal'a o'zining aniq rejalashtirilgan shaharsozlik tizimi bilan ajralib turadi. Uning umumiy maydoni taxminan 26 gektarni tashkil etadi va balandligi 8–10 metr bo'lgan mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan³. Shahar hududida to'rtta asosiy darvoza mavjud bo'lib, ular orqali ichki shahar tashqi hududlar bilan bog'langan. Bu esa o'rta asr shaharlarida xavfsizlik va nazorat tizimi yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Ichan-Qal'a hududida 50 dan ortiq tarixiy me'moriy obidalar va 250 dan ortiq an'anaviy turar joylar saqlanib qolgan. Ushbu obidalar orasida Juma masjidi, Kalta Minor, Toshhovli saroyi hamda Pahlavon Mahmud maqbarasi alohida ahamiyatga ega. Xususan, Juma masjidi o'zining 200 dan ortiq yog'och ustunlari bilan noyob me'moriy yechim sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur hududning yana bir muhim jihati – uning Buyuk Ipak yo'li tizimidagi o'rnidir. Xiva qadimdan savdo yo'llari chorrahasida joylashgan bo'lib, karvonlar uchun muhim to'xtash maskani vazifasini bajargan. Bu esa shaharning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Ichan-Qal'a 1990-yilda UNESCO tomonidan Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, u (iii), (iv) va (v) mezonlar asosida baholangan. Ushbu mezonlar hududning

noyob madaniy meros namunasi ekanligini, tarixiy shaharsozlikning mukammal ko'rishini aks ettirishini hamda an'anaviy yashash muhitini saqlab qolganligini anglatadi.

Ichan-Qal'a "ochiq osmon ostidagi muzey" sifatida emas, balki "tirik tarixiy shahar" sifatida ham muhimdir. Bugungi kunda ham hududda mahalliy aholi yashab, an'anaviy turmush tarzini davom ettirmoqda. Bu esa moddiy va nomoddiy madaniy meros uyg'unligini ta'minlaydi. Hududda hunarmandchilik, milliy urf-odatlar va diniy marosimlar saqlanib qolgan bo'lib, ular turizmni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy davrda Xiva shahri O'zbekistonning eng muhim turistik markazlaridan biriga aylangan. Ichan-Qal'aning kompakt joylashuvi, tarixiy muhitining saqlanganligi va infratuzilmaning rivojlanishi sayyohlar oqimini oshirmoqda. Ayniqsa, piyoda ekskursiyalar, tarixiy obidalarni kompleks tarzda ko'rish imkoniyati va milliy madaniyat bilan tanishish turistlar uchun jozibador hisoblanadi.

Shu jihatlari bilan Ichan-Qal'a nafaqat tarixiy meros obyekti, balki YUNESKO shahar modeli sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. U tarixiy hududlarni saqlash, ularni zamonaviy hayot bilan uyg'unlashtirish va barqaror turizmni rivojlantirish bo'yicha namunaviy tajriba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Encyclopaedia Britannica. Khiva city history
2. Encyclopaedia Britannica. Architecture and monuments of Khiva
3. UNESCO World Heritage Centre. Itchan Kala (1990), UNESCO World Heritage List
4. Central Asia Travel. Khiva – living museum description
5. National Geographic. Khiva tourism and cultural heritage